

REAL INVESTITSIYALARNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI**Haydarova Charos Nizamiddin qizi**

Toshkent moliya instituti

MUSTAQIL tadqiqotchisi (PhD)

Annotation: Ushbu maqolada O‘zbekistonda real va qulay investitsiya muhitini shakllantirishning nazariy va tashkiliy asoslari, ularni amalga oshirish xususiyatlari, mavjud muammolar va ularni hal etish masalalari, shuningdek qanday qilib tashqi aloqalarni yaxshilash va tashqi investitsiya oqimini kuchaytirish shu bilan birga ularni kerakli sohalarga yo‘naltirish to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: real investitsiya, investitsiaya va uning xususiyatlari, investitsiya muhiti, investitsiya mazmuni, investitsiya mohiyati, investitsiya jozibadorligi, investor.

Ключевые слова: реальные инвестиции, инвестиции и их характеристики, инвестиционная среда, содержание инвестиций, сущность инвестиций, инвестиционная привлекательность, инвестор.

Key words: real investment, investment and its characteristics, investment environment, investment content, investment essence, investment attractiveness, investor.

Real investitsiyalar iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ichki jamg‘armalar darajasidan ko‘proq miqdorda kapital jamg‘arish, to‘lov balansini qo‘llab-quvvatlash va imporl qilish imkoniyatini kengaytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta’sor ko‘rsatishi mumkin.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar alohida korxonalarning faoliyati, ishlab chiqarish va kapital samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiya faoliyatining taraqqiyotiga, uning o‘zi esa investitsiya muhitiga bevosita bog‘liq. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi muhimdir. Negaki, mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shartsharoitlar mayjud bo‘lsagina o‘sha davlat iqtisodiyotiga investitsiya qo‘yilishi mumkin. Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishning muhim omili hisoblanadi. Jhon amaliyotidan ma’lumki, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va ularni intensiv rivojlantirish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulot raqobatdoshligini oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash investitsiyalar orqali ta’milanadi. Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish mamlakat investitsiya siyosatining bosh maqsadi bo‘lib qolmoqda. Chunki pandemiya sharoiti iqtisodiyot tarmoqlari oldiga keng qamrovli inqirozlardan himoyalananish kabi murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, ichki va tashqi bozorlarda yuqori raqobatga erishishda eng avvalo, investitsion jozibadorlikni oshirish masalasi zarur bo‘lgan asosiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ma’lumki, har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi va shuningdek, olib borilayotgan davlat investitsiya siyosatining samaradorligi va o‘sish sur’atlari albatta qulay investitsion jozibadorlik muhitiga bog‘liq bo‘ladi. Qulay investitsion muhitni yaratish investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiylar mezon bo‘lib xizmat qilib, birinchi galda, kapital mablag‘larining daromadlilagini ta’minlab beradi. Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shartsharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya muhiti deganda mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma’lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini

ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi. Investitsiyaviy jozibadorlik mamlakat, tarmoq yoki alohida olingen korxona investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya xatari darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir. Investitsiyaviy jozibadorlik investitsiya salohiyati va investitsiya xatari darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investitsiya xatari darajasini aniqlash mumkin. Investitsiya jozibadorligi mamlakat yoki alohida olingen tarmoq investitsiyalarining daromadliligi, investitsiya muhit, infratuzilma, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtai nazaridan aniqlanadi. Investitsiya jozibadorligi mamlakat investitsiya salohiyati va investitsiya riski darjasinining bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqliliqi hamda jozibadorligini aniqlash mumkin bo'ladi. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Investitsiya muhit makroiqtisodiyot darajasida ikki tomonlama, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhit har qanday aniq vaqt uchun ob'ektiv holat bo'lib, kapital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Lekin investitsiya muhit davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng asosiy omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'ladi. Mamlakatimizda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish va uning qulayligini ta'minlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: – investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish - banklar, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalgaloshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish zarur; – tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishslash tajribasi va huquqiy

bilimlarini yanada oshirish - hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar tashkil etish va foliyatini rivojlantirish lozim; – investitsiya takliflari va loyiha texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi sabab tadbirkorlarga inves-titsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas’ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish kerak; – amaliyatda ayrim loyiha tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi kuzatilishi sabab investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatining mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishini ta’minalash; – mahalliy hokimliklar-ning xorijiy investorlarni hudud to‘g‘risida to‘liq investitsion muhitga oid ma’lumotlar bilan ta’minalashda faolligini oshirish - xorijiy investorlarni to‘laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xom ashyo va mehnat salohiyati to‘g‘risida ma’lumotlar) bilan ta’minalash, investitsiya faoliyatiga oid konferentsiyalar, seminarlar va taqdimotlar (respublika hududida va xorijiy mamlakatlarda) o‘tkazish lozim, ayrim korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishdagi hamda xom ashyo sotib olishga aylanma mablag‘lar etishmasligi bo‘yicha korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini o‘rganib chiqib, uni moliyaviy sog‘lomlashtirish, qarzlarini restrukturizatsiya qilish bo‘yicha muvofiqlashtirish ishlarini olib borish orqali eksport salohiyatini oshirish zarur; ishlab chiqarish infratuzilmasiga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarning elektr energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minalashdagi uzilishlarni hal etgan holda eksportyor korxonalarni uzlusiz ravishda elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va nazoratga olish lozim; – texnologiya va asbob-uskunalarining eskirib borayotganligini e’tiborga olib, ishlab chiqarilgan mahsulotning xalqaro standartlarga mosligini va raqobatbardoshligini ta’minalash maqsadida mahalliy tadbirkorlarning xalqaro ko‘rgazma-savdolarda ishtirok etishini ta’minalash, tejamkor texnologiyalarni tanlash va ularni

moliyalashtirish manbalarini aniqlash kerak; – korxonalarda marketing xizmatini to‘g‘ri tashkil qilish, ularning chet el bozorlari, ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan muntazam ta’minlanishiga erishish maqsadida korxonalarda marketing bilan shug‘ullanuvchi xodimlar bilimini, malakasini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ishlab chiqarish hamda eksport salohiyati, marketing va mahsulotlarni sotishga bag‘ishlangan o‘quv mashg‘ulotlari, seminarlar va ko‘rgazmalarni tashkil etishni muntazam yo‘lga qo‘yish lozim. Bizning fikrimizcha, investitsiya iqlimi barqarorligini ta’minlash uchun, birinchi navbatda, investitsiya risklari sug‘ug‘rtasini yoki himoyasi tizimini keng rivojlantirish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni to‘la ma’noda amal qilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, investitsiya iqlimi barqarorligini, fikrimizcha, davlatning xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan siyosiy munosabati, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, davlat apparati boshqarmasining ishlash samarasi, davlatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiyotning umumiyligi holati (o‘sishi yoki inqiroz), inflyatsiya darajasi, valyuta kursining barqarorligi, soliq va bojxona imtiyozlari, ishchi kuchlarining qiymati va mexnat resurslarini ishlatilish tartibi, aniq tovar va xizmat turlariga bo‘lgan talab va taklifning mavjudligi, kredit bahosi, qolaversa jamiyat a’zolarining xorijiy kapital va xususiy mulkchilikni shakllanishiga bo‘lgan munosabati, jamiyatning ideologik bilimlari darajasi, ishchi kuchlarining tashkilotchilik va tadbirkorlik qobiliyati kabi omillarni chuqur o‘rganish va tahlil etish asosida ta’minlash mumkin. O‘zbekistonda qulay investitsiya iqlimi yaratilishi uchun keng harakat qilinmoqda, bu borada xorijiy investorlarga turlicha moliyaviy imtiyozlar va huquqlar berilgan, bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Shuning bilan birgalikda quyidagi tadbirlar, bizning fikrimizcha, investitsiya iqlimini yanada yaxshilash imkoniyatini beradi: so‘mning qadrini ko‘tarish; mulk dahlsizligini ta’minlash, investorlar haq huquqini himoyalashni yanada oshirish, bank foizi stavkalarini barqarorashtirish; islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini hisobga olgan holda soliq tizimini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish; ma’muriy buyruqbozlik holatlariga chek qo‘yish; O‘zbekistonidagi

aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyasi nufuzini va uning likvidliligin oshirish, xorijiy investorlarni ularga jalb eta bilish, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, bosib o‘tgan yo‘li, iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash yo‘lida mamlakatning investitsion muhitni sog‘lomlashtirish borasida qabul qilgan qonunlari, ishlab chiqqan qarorlarini o‘rganish, investitsiyalari kengroq jalb etish bo‘yicha ishlab chiqqan usul va uslublarining kerakli jihatlarini O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Zero, to‘plangan tajribalarni mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq etilishi, tavakkalchilikni pasaytirishga, mavhumlikni oldi olinishiga, yuqori samaradorlikning ta’min etilishiga olib keladi. Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga samarali tatbiq etilishi O‘zbekiston iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Butaboyev, M., Urinov, A., Mulaydinov, F., & Tojimatov, I. Digital economy. Jild: 01 Nashr:01 2022 yil 47AM AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI
2. Горовик, А. А., Мулайдинов, Ф. М., & Лазарева, М. В. (2018). Дистанционное образование как необходимое средство обучения в условиях современной экономики узбекистана. In Цифровой регион: опыт, компетенции, проекты (pp. 122-125).
3. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1205-1209.
4. Мулайдинов, Ф. М. (2021). КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИКДА КРАУДФАНДИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 4), 23-32.
5. TURSUN, S., TUYCHIEVICH, B. M., & MUROTOVICH, M. F. (2020). Effects of the Global Crisis on the Economy of Uzbekistan During the Coronavirus Pandemic and Measures to Ease IT. JournalNX, 6(05), 277-280.

6. Mulaydinov, F. M. (2021). CROWDFUND OPPORTUNITIES IN SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP. Academic research in educational sciences, 2, 23-32.
7. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). The role of information technologies in the development of the digital economy. The role of information technologies in the development of the digital economy.
8. Farkhod, M., Azadkhon, K., Gulkhon, M., & Oybek, A. (2020). Advantages of the transition to a digital economy in the innovative development of Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1226-1232.
9. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining orni-The role of information technologies in the development of the digital economy.
10. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. Форум молодых ученых, (3), 35-43.